

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI



“MOLIYA” kafedrasi

“MOLIYA”  
fanidan

**O'QUV-USLUBIY  
MAJMUA**

**Bilim sohasi:** 200000 – Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq

**Ta'lif sohasi:** 230000 – Iqtisod

**Ta'lif  
yo'nalishlari:** 5230600 – Moliya  
5230900 – Buxgalteriya hisobi va audit

Qarshi – 2022

Fanning o'quv uslubiy majmuasi ishchi o'quv reja va o'quv dasturga muvosiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar.

"Moliya" kafedrasi dotsenti Z.I.Ruziyev

"Moliya" kafedrasi assistenti. O.J.Shoymardonov

"Moliya" kafedrasi kata o'qituvchisi N.R.Murtzayev

"Moliya" kafedrasi assistenti. G.U.Nazarova

Taqrizchilar:

QMII "Moliya" kafedrasi dotsenti R.F.Omanov

"Innavatsion iqtisodiyot" kafedrasi

dotsenti G.T.Samiyeva

Fanning O'quv Uslubiy majmuasi "Moliya" kafedrasining 2022 yil "12" o'ndagi "15"-sonli yig'ilishida muxokamadan o'tkazilgan va Iqtisodiyot fakulteti Kengashida muxokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri

dots R.F.Omanov

Fanning O'quv Uslubiy Majmuasi Iqtisodiyot fakulteti uslubiy komissiyasida (bayon № 9, 18.04.2022 y.) va institut Uslubiy Kengashida (bayon № 9 25.04.2022 y.) muhokama etilgan va o'squv o'quv jarayoniga foydalanishga tavsiya qilingan.

Kelishildi:

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i

dots.SH.Turdiyev

(imzo)

Iqtisodiyot fakulteti

Uslubiy kamissiya raisi

dots.A.Qurbanov

(imzo)

## KIRISH

Moliya – yuridik va jismoniy shaxslarning o‘z mulklerini ixtiyoriy ravishda birlashtirish orqali tijorat tashkilotini tashkil etish va tashkil etilgan tijorat tashkilotining faoliyati bilan bog‘liq pulli munosabatlarni anglatadi va moliya tizimining mustaqil sohasi hisoblanadi. Moliyaning aynan shu sohasida iqtisodiyotning turli tarmoqlariga taqsimlanadigan daromadlarning asosiy qismi shakllanadi va bu daromadlar iqtisodiy taraqqiyotning hamda jamiyat ravnaqining asosiy manbasi sifatida xizmat qiladi. Bunda korxonalar daromadlari o‘z-o‘zini moliyalashtirish uchun, ishehi xodimlar va davlat oldidagi majburiyatlari hamda boshqa yo‘nalishlarga taqsimlanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda korporativ moliyaning moliya tizimi markaziy bo‘g‘ini sifatida yuzaga chiqishini ko‘rishimiz mumkin va korporativ moliyaning amal qilishini samarali tashkil etish jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida doimiy e’tibor talab qilishini ta’kidlashimiz lozim bo‘ladi. Korporativ moliya bugungi kunga kelib xalqaro moliya tizimining asosi sifatida ham xizmat qilmoqda, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Aynan shunday holatda mamlakatimizda korporativ moliyanı samarali tashkil etish mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotini yuksaltirish bilan birga xalqaro iqtisodiy integratsiyalashuv jarayonining yuksalishiga imkon beradi. Buning uchun esa tayyorlanayotgan iqtisodchi mutaxassislarning korporativ moliya bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmaga ega bo‘lishlari talab etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag‘i “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PE-4947-sonli Farmoni bilan “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” tasdiqlandi. Unga ko‘ra 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasida oliy ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish Dasturini ishlab chiqish, korporativ moliyaviy munosabatlar, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini samarali tashkil yetish masalalari ham qo‘yildi.

Harakatlar strategiyasida oliy ta‘limni rivojlantirish bo‘yicha belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida 2017 yil 20 aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan “2017-2021 yillarda oliy ta‘lim tizimini kompleks rivojlantirish dasturi” tasdiqlandi.

2017-2021 yillarda oliy ta‘lim tizimini kompleks rivojlantirish Dasturini joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar kompleksida belgilangan “Zamonaviy o‘quv, o‘quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlar (jumladan, xorijiy adabiyot asosida) bilan ta‘minlash”da o‘quv-uslubiy majmualar tayyorlash va o‘quv jarayonida qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan “Korporativ moliya” fanidan tayyorlangan o‘quv-uslubiy majmua amaldagi qonunchilik, Harakatlar strategiyasi va qabul qilingan

dasturlar, vazirlik tomonidan tasdiqlangan fan dasturi, korporativ boshqaruvi bo‘yicha xorijiy tajriba asosida ishlab chiqildi.

Unda birinchi o‘rinda fan dasturiga muvofiq ma‘ruzalar mavzulari yoritib berilgan. Har bir mavzu bo‘yicha: reja savollari, tayanch so‘z va iboralar, asosiy matn berilgan bo‘lib,